Birinchi holda geotermal plast qatlamidan olinadigan ma'lum temperaturali issiqlik oqimi issiqlik $\frac{z}{r-r_0}$ tashuvchi (xavo)ga uzatiladi. Bunda geothermal plast qatlamidagi T_j -temperaturali issiqlik kompozitsion quvurlar orqali sirkulyatsiyalanadi. Energiyaning saqlanish qonuni asosida geotermal plast qatlamidan kompozitsion quvurlarga issiqlik o'tkazuvchan yuli bilan T_j -temperaturali issiqlik oqimi konvekt issiqlik almashinuv bilan atrof muxitga (gelioissiqxonaga) uzatiladi. Geotermal plast qatlami bilan kompozitsion quvur yuzasida issiqlik almashinuvini N'yuton-Rixman tenglamasi orqali ifodalash mumkin. Katta qatlam chegarasida bo'ladigan issiqlik almashinuvi issiqlik o'tkazuvchanlik yo'li bilan Fur'e tenglamasi bo'yicha aniqlanadi []. Demak birinchi xolda geotermal plast qatlamida joylashtirilgan kompozitsion quvurdan ajratilgan elementar xajmni yon tomon yuzasi bilan, massiv orasida issiqlik tashuvchi (xavo) ni harakatlanishi jarayonida uchunchi tartibga shartga asosan "Issiqlik tashuvchi plast" chegarasi orasidagi issiqlik oqimi muvofiqililigi e'tiborga olinadi.

Birinchi xolda uchunchi tartibli chegara shartlari $z_B \leq z \leq z_0$ uchun tenglama quyidagicha ifodalanadi:

$$\left. \frac{\partial T}{\partial r} \right|_{r=r_0} = -\frac{\alpha}{\lambda} [T|_{r=r_0} - T_j] \quad (18)$$

bu yerda α -issiqlik berish koeffitsienti, $Vt/(m^2 K)$; λ -issiqlik uzatish koeffitsienti. $Vt/(m K)$; Ikkinchi xolat geotermal plast qatlamida issiqlik o'zgaras va issiqlik tashuvchi sirkulyatsiyalanishi kuzatilmaydi. Natijada kompozitsion quvur va uning atrofidagi massivdan ajratilgan elementar xajmning yon tomonidagi yuzada "Issik tashuvchi plast" chegarasida issiqlik almashmaydi.

Kompozitsion quvur atrofidagi geotermal massivning elementar xajm bo'ylab kesimidan dx masofada massiv quvur (MQ) silindr atrofidan ($r>0$ bo'lgan holda) bo'ylanma yo'nalishini logarifmlash shaklida ifodalab xisoblash qulay bo'lib, uni quyidagicha tenglikka keltiramiz.

$$X = \eta r \quad (19)$$

Geotermal massivdan "issiqlik tashuvchi" ni $z_0 \leq z \leq z_B$ intervalda temperatura o'zgarishi quyidagi formula bilan ifodalanadi.

$$\left. \frac{\partial T}{\partial x} \right|_{x=y_{\max}} = \frac{\alpha r_0}{\lambda} [T|_{x=y_{\max}} - T_j] \quad (20)$$

Chegara shartlariga asosan (20) tenglamani quyidagi ko'rinishda ifodalaymiz

$$\left. \frac{1}{r_0} \frac{\partial T}{\partial x} \right|_{x=x_0} = \left. \frac{\partial T}{\partial x} \right|_{x=x_0} = 0 \quad (21)$$

Yer osti geotermal plastdagi issiqlik almashinuv jarayonlarni matematik modelashtirib tadqiq etish bilan mavjud qurilmalar ya'ni fizik modelashtirish bilan o'tkazilgan izlanishlarni taqqoslanganda natijalar olish jarayoni uchun juda kam vaqt sarflanadi. Shuningdek issiqlik uzatish bilan bog'liq masalani analitik usulda yechish murakkabligi uchun uni sonli metod bilan yechildi [8]. Geotermal yer osti plast qatlamdagi issiqlik almashinuvi jarayonida kompozitsion quvurlar orqali chiqadig issiq xavo temperaturasi T_{j0} , quvvati $N=1,5$ kVt bo'lgan so'rib-xaydovchi ventilyatorga haydovchi tashqi xavo sarfiga ham bog'liqdir. Shuning uchun geotermal yer osti plast qatlamidagi issiqlik miqdorini meyor darajada chiqarishga mo'ljallangan ventilyator quvvatini tanlash masalasini yechish xam yetarli tadqiqotlar o'tkazilishini talab etadi.

Yer osti geotermal plast qatlamidagi issiqlik olish va undan foydalani koeffisienti ε_Φ –gelio teplitsa ichidagi havo temperaturasi plast qatlam orqali sirkulyatsiyalanib, issiqlik almashinuv jaranlaridagi xarakatlanish oqimiga va kompozitsion quvurlar orqali chiqadigan issiqlik tashuvchining oqim sarflari bilan taqqoslanib temperaturalar farqi orqali aniqlanadi

$$\varepsilon_\Phi = \eta_k \cdot \Delta\theta_k + \bar{T}_x / (\Delta\theta_k + \bar{T}_x + \Delta\theta_{u1} - \bar{T}_{fzp}) \quad (22)$$

bu yerda $\bar{T}_x = (T_{0x} - T_{1x})/2$ - yer osti geotermal plast qatlamidan kompozitsion quvurlar orqali kiradigan va chiqadigan issiqlik tashuvchi (xavoning o'rgacha temperaturasi, K.

$\bar{T}_{fzp} = (T_{f0} - T_{f1})/2$ -yer osti geotermal plast qatlamida issiqlik almashinuvi jarayonida sirkulyatsiyalanadigan xavo oqimlarining qatlam bo'yicha o'rtacha temperaturasi, K.

$\Delta\theta_{u1} = \bar{T}_{fzp} - T_T$ -geotermal plast va tuproq konturdagi o'rtacha temperatura, K

$\Delta\theta_k = T_k - \bar{T}_T$ -geotermal plast konturi va gelioteplitsa, ichidagi xavoning o'rtacha temperaturasi, K.

Agar geotermal plast akkumulyatorga joylashtirilgan silindrik kompozitsion quvurga o'rnatilgan suruvchi-xaydovchi ventilyator quyosh xavo qizdirgichiga birlashtiriladigan bo'lsa yer osti tog' bo'laklarida issiqlikni akkumulyatsiyalanish samaradorligi yanada ortadi va bunda tengsizlik quyidagicha ifodalanadi.

$$\frac{\varepsilon_{tik}^c}{\varepsilon_{tik}^{pl}} \geq 1 \quad (23)$$

Bu formulaga ε_{tik}^c va ε_{tik}^{pl} qayta tiklanadigan energiya koefitsientlari qiymatlarini quyib, geotermal plast qatlamda akkumulyatsiyalangan issiqlik temperaturasi T ni va quyosh xavo isitish kollektoridan samarali foydalanib, geotermal plast qatlamida akkumulyatsiyalangan issiqlikni kompozitsion quvurlardan vaqt birligida chiqish temperaturasi $T(t)$ ni quyidagi formuladan aniqlaymiz.

$$T(t) \geq \frac{T_{f0}(t) + T_{f1}(t)}{r} + (\Delta\theta_{H1} + \Delta\theta_{H2}) \quad (24)$$

t -vaqt davomida issiq havo oqimini harakatlanishi uchun quyidagi tenglik o'rinlidir:

$$Q_{ik}^{pk}(t) = nQ_{fk}(t) \quad (25)$$

bu yerda Q_{fk} – quyosh issiq xavo kollektoridan geotermal plast qatlamiga beriladigan issiqlik miqdori; n - geotermal plast qatlamida joylashtirilgan kompozitsion quvurlar soni

Yer osti geotermal plast qatlamiga kompozitsion quvur orqali uzatiladigan issiqlik oqimi Q_{ik}^{pk} ning quvvati quyosh xavo isitish kollektorini ishlash rejimi asosida aniqlanadi.

$$\varepsilon_{tn}^{gr}(t) = \frac{Q_{tn}}{Q_{tn}(t) - Q_{tn}^{gr}(t)} \quad (26)$$

Demak yer osti geotermal plast qatlamidagi Q_{fk} – issiqlik miqdori va quyosh xavo isitish kollektoridan uzatiladigan Q_{ik}^{pk} issiqlik miqdorlari integratsiyalanishi natijasida sutkaning tashqi xavo temperaturasi $-3-8^{\circ}\text{S}$ bo'lgan quyoshli kunlar davomida gelioteplitsa ichidagi xavoni xaroratini mo'tadillashtiradi ya'ni $18-20^{\circ}\text{C}$ da saqlanishiga erishiladi. Shuningdek kombinatsiyalashtirilgan yer osti geotermal plast qatlamidagi issiqlik va quyosh havo isitish qurilmasidan olinadigan issiqlik energiyasini yer osti tog' jinslaridan tuzilgan qatlamga akkumulyatsiyalab undan gelioteplitsalarni qish faslida isitish uchun innovatsion texnologiyadan foydalanib yoqilg'i energiya resurslari tejaladi va gelioteplitsada mikroiklim yaratiladi. yetishtiriladigan o'simlik ildiz qatlamida agrotexnologik temperaturalari integratsiyalanishi asosida issiqlik rejimi mo'tadillashadi.

Yer osti geotermal plast qatlamidan va quyosh nuri bilan xavo isitish innovatsion tizimlar asosida gelioteplitsaga beriladigan issiq xavoning temperaturasi quyidagi formuladan aniqlanadi [Kormer O., Challa H. Design for an improved temperature integration concept ingreenhouse cultivation// Computes and Electronies in Agriculture.-2003.-Vol.39.-№1.- P.39-59.]

$$t_{fk} = t_T + \frac{Aq \cdot S_g}{k \cdot S_1} \cdot \varepsilon_{jn}^{uz} \quad (27)$$

bu yerda t_T - tashqi xavo temperaurasi, $^{\circ}\text{C}$; A - gelioteplitsa tiniq yuzasidan o'tgan quyosh radiatsiyasini tuproq qatlamida yutilish koefitsienti; q - tiniq yuza orqali o'tgan quyosh radiatsiyasini intensivligi, Vt/m^2 ; S_g - gelioteplitsa ishchi maydonning yuzasi, m^2 ; k - tiniq yuzaning atrof-muxitga issiqlik berish koefitsienti, $\text{Vt}/(\text{m}^2 \text{ s})$; S_1 gelioteplitsa tiniq yuzasi, m^2 ; Tashqi xavo temperaturasi o'rtacha oylik natijalari Muborakneftgaz MCHJ ning "Energiya tejamkorlik va ekologik muammolar laboratoriyasi" da olib borilgan tadqiqotlardan olindi. Quyosh radiatsiyasining intensivligi quyidagi formula bilan xisoblanadi.

$$q = \left[k_p \frac{38(39)q_T \cdot 10^6}{N \cdot \tau \cdot 3600} \right] \quad (28)$$

bu yerda k_p – gelioteplitsani tiniq yuzasining quyosh nurini o'tkazish koefitsienti; 38- Muborak sh uchun joyning geografik kengligi; 39- joyning geografik kengligiga muvofiq quyosh radiatsiyasining yig'indi qiymati; q_T –, – tajribalardan piranometr asbobida o'lchashlardan olingan quyosh radiatsiyasini yig'indi qiymatlari; MJ/m^2 ; 10^6 o'tkazish koefitsienti; N - oy davomidagi kunlar soni, kunlar; τ - oyning sutka davomidagi quyoshli soatlari davomiyligi; soat;

3600-bir soatdagi sekundlar, 2018-2029 yillarda quyoshli kunlar (dekabr, yanvar, fevral, mart) davomiyligi Qarshi shahri metrologik markazidan olindi va quyidagi formula bilan hisoblab aniqlandi.


$$H = \sin(\varphi) \cdot \sin(\delta) + \cos(\varphi) \cdot \cos(\delta) \cdot \cos(\pi \cdot \frac{12-\beta}{12}) \quad (29)$$

$$\delta = -\arcsin \left[\sin(2\pi \frac{23.45}{360}) \cdot \cos(2\pi \cdot \frac{D+10}{365}) \right] \quad (30)$$

bu yerda H-quyosh turish balandligi; φ -joyning geografik kengligi Muborak shahri uchun (38 grad); δ -quyoshning ekvatorga nisbatan og'ish burchagi, β -joriy vaqt, soat: D- yildagi 1 dekabrden boshlanib kunlar soni

$$K = 8 \text{ Vt}/(\text{m}^2\text{°C}); k_p = 0.9; A = 0.8; S_1 = 260 \text{ m}^2; S_2 = 180 \text{ m}^2;$$

Muborak shahri uchun tashqi temperaturasi (t_T) ning o'rtacha qiymati, joyning geografik kengligi 39° bo'lganda mintaqada yig'indi quyosh radiatsiyasi (q) va kunning uzunligi (T , soat), va gelioteplitsa ichidagi xavo temperaturasi to'rt oy uchun qiymatlari (2019 yil XII-dekabr, 2020 yil 1- yanvar, 1-fevral, 1-mart) asosidagi nazariy va eksperimental tadqiqotlarning natijalari 3-rasmda keltirildi.



3-rasm. Yer osti geotermal plast qatlamidagi va quyosh xavo isitish kollektoridan kompozitsion quvur orqali uzatiladigan issiqlik energiyalarini akkumulyatsiyalangan issiqlik bilan gelioteplitsa ichida xavo temperaturasi o'zgarishini oylar bo'yicha o'rtacha tiniq yuzadan o'tadigan quyosh radiatsiyasi intensivligiga, tashqi xavo temperaturasiga va yer osti geotermal plast qatlamidan quvurlar orqali gelioteplitsa ichiga chiqadigan xavo temperaturasiga bogliqligi keltirilgan.

1-tashqi xavo temperaturasini o'rtacha o'zgarishi; 2-gelioteplitsa ichidagi xavo temperaturasini o'rtacha o'zgarishi; 3-yer osti geotermal plast qatlamidan quvurlar orqali chiqadigan xavo temperaturasini o'zgarishi; 4-gelioteplitsa tiniq yuzasidan o'tadigan quyosh radiatsiyasining intensivligi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar analizi MATLAB/SIMULIK dastur asosida sonli metod bilan ishlab chiqilishi natijasida 3-rasmdagi grafik olindi. Yer osti geotermal plast jinslaridan iborat issiqlik akkumulyatoriga quyosh xavo isitish kollektoridan surib xaydovchi ventilyator bilan uzatiladigan

xavoning temperaturasi $t_f \geq 22^\circ\text{C}$ va oqim tezligi $0,62 \geq \text{m/s}$ bo'lgan xollarda tashqi xavo temperaturasi $t_T \geq -5^\circ\text{C}$ da xam geliotenitsa ichidagi xavo temperaturasi $t_{\text{ich}} = 18-20^\circ\text{C}$ intervalda bo'ladi. Shuningdek gelioteplitsa ishchi maydonida kunduzgi quyosh nur energiyasini yutishi bilan qurilma tiniq yuzasidan atrof-muxitta sarflanadigan issiqlik miqdorlarini o'zaro kompensatsiyalanishi e'tiborga olinganda yer osti geotermal plast tog' jinslarida iborat qatlam kompensatsion quvurlar orqali gelioteplitsa ichidagi temperaturani boshqarish texnologiyasi integratsiyalanishi natijasida yetishtiriladigan o'simlikni normal rivojlanishi uchun mikro iqlim yaratilishiga erishiladi.

Maqolani tayyorlash jarayonida olib borilgan tadqiqotlarni natijalaridan quyidagicha asosiy xulosalarga kelindi:

1) Yer osti geotermal plast tog' jinslaridan iborat qatlam issiqligi va quyosh xavo isitish kollektordan uzatiladigan energiya tejamkor texnologik tizim asosida issiq oqimi sirkulyatsiyalanishi jarayonida akkumulyatsiyalangan issiqlik bilan gelioteplitsalagi temperatura integratsiyasi asosida o'simliklarni rivojlanishi uchun mu'tadil iqlim rejimi yaratiladi.

2) Ishlab chiqilgan texnologik tizim asosida gelioteplitsada temperatura integratsiyasidan respublikamizdagi geotermal plast issiqlik manbalaridan dekabr-dan-mart oylarida samarali foydalanish bilan yoqilg'i energiya resurslarini tejashga erishiladi.

Yer osti massiv qatlamida issiqlikni filtrlab o'tishini muvofiqlik tizimi akkumulyatorda xavoning o'tkazuvchanlik koeffitsienti asosiy ko'rsatgichi xisoblanadi va donador qatlam va yer massivining xavo singdiruvchanlik koeffitsienti qatlam g'ovakligiga bog'liq bo'lib quyidagi formula orqali aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хайриддинов Б.Э., Холмирзаев Н.С., Халимов Г.Г., Рисбаев А.С., Эргашев Ш.Х. "Мукобил энергия манбаларидан фойдаланиш" Т.: "ADABIYOT ECIQUNLARI" 2018 йил 414 бет
2. Ададуров Е.А., Амирхонов Р.А. Моделирование процесса аккумуляции теплоты 25 массиве грунте Изв. Вузов Сев. Кавказ регион. Естественные науки. Приложение. 2004. №8, с.60-65.
3. Рау М.В., Чернышев С.Н. Трещеноватость и свойства трещеноватых горных пород.- М.: Гостолтехиздат. 1970. -158 с.
4. Рихтмайер Р., Мартен К. Разностные методы решения красных задач. М.: Мир. 1972.-420 с.
5. Коздоба Л.А. Методы решения нелинейных задач теплопроводности. -М.: Паука. 1975.-228 с.
6. Пасконов В.М., Полежаев В.Н., Чудов Л.А. Численное моделирование процессов тепло- и массообмена. М.: Наука, 1984.-288 с.
7. Lanol P.D., Ostman M.D. //Solar Energy 1995. V.34 № 4/5.P.351-366
8. Даффи Дж.А. Бекман У.А. Тепловые процессы и использованием солнечной энергии М.: Мир 1977-420 стр
9. Kouren O. Challa H Design for an improved temperature integration concept ingreenhouse cultivation //computes and Electronies in Agriculture 2003-Vol 39 №1 P. 39-59
10. Аллоокулов А.Э., Хайриддинов Б.Э., Ким В.Д., Нетрадиционная теплоэнергетика Г.: "Фан" 2009 182 с

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ТУПРОҚЛАРИНИНГ МЕЛИОРАТИВ ХОЛАТИ ВА МОНИТОРИНГИ

Ш.В.Рахманов

Наманган давлат техника университети

Х.Ф.Нуралиева

Наманган давлат техника университети талабаси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16168014>

Аннотация: Мақолада ер захираларининг чекланганлиги ва сифат таркибининг пастлиги билан боглик, хавф тўхтовсиз ортиб бораётганлиги, айти вақтда ер улкан бойлик бўлибгина қолмай, балки мамлакатимизнинг келажагини белгилаб берувчи омил эканлиги, шунинг учун ҳам ерларни муҳофаза қилиш, улардан ўта самарали ва оқилона фойдаланишни йўлга қўйиш замонамизнинг энг долзарб масаласи эканлиги таҳлил этилган.

Калит сўзлар: миллий ўзлик, ўзбек тили, маданий мерос, мустақиллик, ўзликни англаш, тил сиёсати, ўзбек жамияти, маданий тараққиёт, тарихий хотира, мустакил Ўзбекистон

МЕЛИОРАЦИЯ И МОНИТОРИНГ ПОЧВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: В статье отмечается, что из-за ограниченности земельных ресурсов и низкого качества риск постоянно увеличивается, а земля является не только большим богатством, но и определяющим фактором будущего нашей страны. проанализированы.

Ключевые слова: национальная идентичность, узбекский язык, культурное наследие, независимость, самосознание, языковая политика, узбекское общество, культурное развитие, историческая память, независимый Узбекистан.

LAND RECLAMATION AND MONITORING OF THE SOILS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: The article notes that due to the limited land resources and low quality, the risk is constantly increasing, and land is not only a great wealth, but also a determining factor in the future of our country analyzed.

Keywords: national identity, Uzbek language, cultural heritage, independence, self-awareness, language policy, Uzbek society, cultural development, historical memory, independent Uzbekistan

КИРИШ

Давлатимиз томонидан олиб борилаётган жамият ҳаётининг ҳамма соҳаларини эркинлаштиришга қаратилган ижтимоий - иқтисодий қайта қуриш сиёсати, ер муносабатларини тартибга солишга ва ер ресурсларидан унумли фойдаланиш даражасини оширишга объектив шароитлар яратди.

Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримовнинг «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт қафолатлари» асарида ер захираларининг чекланганлиги ва сифат таркибининг пастлиги билан боглик, хавф тўхтовсиз ортиб бораётганлиги, айти вақтда ер улкан бойлик бўлибгина қолмай, балки мамлакатимизнинг келажагини белгилаб берувчи омил эканлиги, шунинг учун ҳам ерларни муҳофаза қилиш, улардан ўта самарали ва оқилона фойдаланишни йўлга қўйиш замонамизнинг энг долзарб масаласи эканлиги алоҳида таъкидлаб ўтилган.

Ер халқ, бойлиги, қишлоқ хўжалик ишлаб чиқаришининг бош воситаси. Тупроқ унумдорлигини ва ишлаб чиқариш қувватларини ошириш, кўп жиҳатдан, унга эҳтиёткорлик ва тежамкорлик билан муносабатда бўлишга, уни яхшилашга қаратилган чора тадбирлар мажмуасига боғлиқ.

АСОСИЙ ҚИСМ

Қишлоқ хўжалигида фойдаланиладиган ерлар, айниқса суғориладиган ерлар шубҳасиз барча халқларнинг бебаҳо хазинаси ва яшаш шароитининг муҳим манбаи ҳисобланади. Ушбу ерлардан оқилона ва самарали фойдаланиш, уларнинг ер фондини кенгайтириб бориш инсоният олдида доим бош масала бўлиб келган. Бу, айниқса, аҳоли сони ва озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган талабнинг узлуксиз ўсиб бориши билан ўзининг ифодасини топади.

Ер чекланган ва қайта тикланмайдиган табиий ресурсдир. Бугунги кунда унинг шўрланиши, саҳроланиши, ирригацион ва шамол эрозияси, тупроқнинг ҳар хил техник чиқиндилар билан ифлосланиши, гумус ва озиқа элементларнинг камайиб кетиши қабилар ушбу ресурсга жиддий хавф солмоқда.

Хозирда республикаимизнинг умумий 44410,3 минг гектар ер майдонидан қишлоқ хўжалигида фойдаланиладиган ерлари 25681,3 минг гектарни ёки умумий ер фондининг 57,8% ини ташкил қилади. Шундан қишлоқ хўжалигида интенсив фойдаланиладиган ерлар, яъни суғориладиган майдонлар 4,3 млн. гектарни ташкил қилиб, ушбу ерлар республикаимизнинг «олтин фонди» ҳисобланади, Улар жами ер фондининг 10 фоизга яқинини ташкил этиб, ялпи қишлоқ хўжалик маҳсулотларининг 95 %ни етказиб беради. Бу эса республикаимиз қишлоқ, ва халқ хўжалиги тармоқларининг ишлаб чиқариш фаолиятини белгилаб бериб, давлатимиз иқтисодий салоҳиятини оширишда бош омил бўлиб хизмат қилади.

Бугунги кунда республикаимизда суғориладиган ерларнинг 49 %и турли даражада шўрланган бўлиб, бунинг қарийб 18 %и кучли ва ўрта даражада шўрланган ерлардир. 23 %дан ортиғи эса бонитети паст ерлар тоифасига киради. Мелиоратив ҳолати қониқарсиз ерларнинг катта қисми Қорақалпоғистон Республикаси, Хоразм, Бухоро, Жиззах ва Фарғона вилоятларига тўғри келади.

Хозирда қишлоқ хўжалик мутахассислари олдида республикаимиз экин майдонларини турли салбий ҳолатлардан ҳимоя қилиш, уларга қарши кечиктириб бўлмас чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва қўллаш каби ишлар бош масала бўлиб турибди. Бу эса, ўз навбатида, тарбияланаётган ёш авлодларни билимли мутахассислар қилиб тарбиялашни тақозо этади.

Қишлоқ хўжалик ишлаб чиқаришини изчиллик билан жадаллаштириш, ер фондидан оқилона фойдаланиш, суғориладиган ҳар гектарнинг ҳосилдорлигини, унинг иқтисодий самарадорлигини ошириш билан боғлиқ муаммолар ечимини ишлаб чиқиш ғоят катта аҳамият касб этади. Бу борада тупроқ унумдорлигини сақлаш, уни йил сайин мунтазам ошириб бориш қишлоқ хўжалик мутахассислари зиммасидаги муҳим вазифалардан ҳисобланади.

Юртимизда қишлоқ хўжалигидан фойдаланиладиган ерларни мелиорациялашга бениҳоят катта эътибор қаратилган бўлиб, ерларни лойиҳалаш, мелиоратив тизимларни қуриш ва фойдаланиш ҳамда мелиоратив тадбирлар ўтказишга давлатнинг катта маблағлари ажратилган. Ўзбекистон Республикаси истиқболга эришиши, мустақил давлат деб эълон қилиниши ва ҳуқуқий жамият қуриши, ўз ҳудудида ер муносабатларини тартибга солишда ва ривожлантиришда тўла мустақилликка эришганлиги, унинг ерлардан оқилона

фойдаланиши, мелиоратив ҳолатини яхшилаш ва муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий асосини яратиш ва такомиллаштириш имконини берди. Мамлакатимиз аграр соҳасида ислохотларни ҳуқуқий жиҳатдан таъминлаш мақсадида бир канча қонунлар қабул қилди.

Шу жумладан, ер муносабатларини ҳуқуқий жиҳатдан ривожлантириш ва тартибга солиш, ерлардан оқилона фойдаланиш, мелиоратив ҳолатини яхшилаш, унумдорлиги ошириш, ер тузиш ишларини олиб бориш, ернинг сифат баҳосини аниқлаш, хўжалик фаолиятига баҳо беришга ва хоказоларга қаратилган. Ўзбекистон Республикаси "Ер кодекси" ҳамда "Давлат ер кадастри" тўғрисидаги Қонун ва бошқа қишлоқ хўжаликдаги ислохотларни чуқурлаштиришга доир қонун ва меъёрий ҳужжатлар қабул қилиниши республикада қишлоқ хўжалигини ривожлантиришга катта ҳисса қўшиш билан бирга, келажак авлодларимизга соғлом, унумдор ерлар қолдириш йўлида катта қадам бўлади, негаки инсонларни тақдири кўп жиҳатдан ер, тупроқ ва сув тақдирига боғлиқдир.

Хозирги кунда қишлоқ хўжалик аҳамиятига эга бўлган ерларни муҳофаза қилишга алоҳида эътибор берилмоқда. Чунки мамлакатимизда умуммиллий мулк бўлган ерни муҳофазалаш ва ундан фойдаланиш конституцион аҳамиятга эга бўлиб, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 55-моддасида «Ер, ер ости бойликлари, сув, ўсимликлар ва ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий захиралар умуммиллий бойликдир, ундан оқилона фойдаланиш зарур, чунки улар давлат муҳофазасидадир», -деб белгилаб қуйилган.

Шундай қилиб, ердан фойдаланишнинг тежамли тизимини ташкил қилиш ва амалга ошириш, яъни агросаноат мажмуасида ва умуман, иқтисодиёт тармоқларида уларни аниқ мақсадга йуналтирилганлигини - ерни тежаш ва фойдаланишда юқори самарадорликка эришиш мезони бўйича давлат ер захирасини, ер тоифалари бўйича табақалаштирилган меъзонни таъминлашдан иборатдир.

Юртимиз тупроқларининг механик таркиби бўйича ўрта кумоқ таркибли тупроқлар салмоғи юқори бўлиб, жами суғориладиган ерларнинг 48 %ни ташкил этади. Бундай тупроқларнинг сув-физик хусусиятлари мўътадил бўлади, улар етарли нам сақловчи ва сув ўтказувчан бўлиб, тузларнинг ювилиши ва ишлов берилиши осон. Механик таркиби оғир кумоқли тупроқлар суғориладиган ерларнинг 25 % ни ташкил этади. Бу тупроқлар сувда осон эрувчан тузлардан ювилиши қийин, ерга ишлов бериш қуролларига қаттиқ қаршилиқ кўрсатади, қуриш жараёнида уларнинг юза қисмида қатқалоқ ҳосил бўлади. Енгил кумоқ таркибли тупроқлар суғориладиган ерларнинг тахминан 23 %ни ташкил этади. Бундай тупроқлар ўзида кам нам сақлайди, тез қуриydi, шамол ва сув эрозиясига мойил, қатъий суғориш тартибини талаб қилади. Суғориладиган ерларнинг тахминан 4 % қумлоқ ва қумли тупроқлардир. Уларнинг табиий унумдорлиги паст бўлиб, ёмон сув-физик хоссаларга эга, шамол ва сув эрозиясига мойил.

Суғориладиган ерлар тупроқ шароити, механик таркиби, шўрланиш даражаси, гипснинг мавжудлиги, тошлоқчилиги, эрозияга мойиллиги ва бошқа хусусиятлари бўйича фарқланади.

Паст тоғлар, тоғости ва тоғолди ҳудудлардаги тик (вертикал) минтақа тупроқлари суғориладиган барча ерларнинг 43 %ни ташкил этади. Шулардан турли тусли бўз тупроқлар 0,8; типик бўз тупроқлар 17,3; оч тусли бўз тупроқлар 18,1; бўз ўтлоқи, ўтлоқи ва ботқоқ, ўтлоқи тупроқлар 6,8 %ни ташкил қилади.

Чўл зонаси текислик ҳудудларидаги тупроқлар суғориладиган ерларнинг 57 %ни ташкил этиб, шулардан тақир тупроқлар 8,2 %ни, ўтлоқи-тақир, ўтлоқи ва ботқоқ; ўтлоқи

тупроқлар 47 %ни, сур тусли қўнғир, сахро-қумлоқ тупроқлар, шўрхоқлар 1,8 %ни ташкил қилади.

ХУЛОСА

Республикаимиз аҳолисининг катта қисми (62%) қишлоқ хўжаликларида асосан, қишлоқ хўжалик ишлаб чиқариш билан боғлиқ ҳолда яшайди. Шундай экан қишлоқ хўжалик аҳолисининг яшаш даражаси тупроқнинг ҳосилдорлик имконияти билан боғлиқ. Шунинг учун қишлоқ хўжалик ер манбаларидан тўғри фойдаланиш, суғориладиган ерларнинг унумдорлигини тиклаш дастурларини ишлаб чиқиш ва амалиётга тадбиқ этиш долзарб масала бўлиб, тезкорлик билан бу масалани ечишни талаб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Максудов Ж., Нагаев Г., Ақромов И. Кузиев Р., Аҳмедов А. Тупроқ хариталари ва ерларни баҳолаш ҳужжатларидан фойдаланиш. Т., 2000.
2. Норкулов У. Шералиев Х. "Қишлоқ хўжалиги мелиорацияси". "Ўзбекистон миллий энциклопедияси". Т., 2003.
3. Узоков П., Бобохужаев И. - «Тупроқшунослик». «Мехнат». Т. 1995.
4. Кузиев Р.Д. "Ўзбекистон Республикаси суғориладиган ерларининг ҳозирги ҳолати. Суғориладиган бўз тупроқлар унумдорлигини ошириш ва унинг экологик муаммолари". Самарканд. 2002.

07.00.00 – Tarix fanlari

07.00.00 - History

07.00.00 - История

XOTIRALARDA MUHRLANGAN FARYOD: ZAKI VALIDI NIGOHIDA 1916-YIL TURKISTON QO'ZG'OLONI

Abduqahorov Anvarjon Alijon o'g'li

Navoiy davlat universiteti ilmiy tadqiqotchi

E-mail: anvarabduqahhorov34@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16757952>

Annotatsiya: Mazkur maqola 1916-yilda Turkistonda yuz bergan xalq qo'zg'olonining tarixiy-siyosiy ildizlari va oqibatlarini Ahmad Zaki Validi To'g'onning "Xotiralar" asari asosida tahlil etishga bag'ishlangan. Unda muallif esdaliklarida tasvirlangan voqealar zahirida yotgan milliy iztirob, mustamlaka zulmi va xalqning erkinlikka bo'lgan intilishi aks etgan sahifalar ochib beriladi. Ayniqsa, Zaki Validining guvohliklari orqali qo'zg'olon ishtirokchilari, ularning taqdirleri va chor hukumatining zo'ravon siyosati aniq faktlar asosida yoritiladi. Maqola tarixiy xotira, shaxsiy kuzatuv va voqeyilik uyg'unligi orqali 1916-yil fojiasining o'ziga xos aks sadosini ochib beradi va Turkiston xalqlarining ozodlik kurashidagi muhim bosqich sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Qo'zg'olon, xotiralar, imperiya, siyosiy kuchlar, milliy ozodlik, mustaqillik, dehqon.

КРИК, ЗАПЕЧАТЛЁННЫЙ В ПАМЯТИ: ТУРКЕСТАНСКОЕ ВОССТАНИЕ 1916 ГОДА ГЛАЗАМИ ЗАКИ ВАЛИДИ

Аннотация: Данная статья посвящена анализу историко-политических корней и последствий народного восстания 1916 года в Туркестане на основе произведения Ахмада Заки Валиди Тогана «Воспоминания». В статье раскрываются страницы, отражающие национальное страдание, колониальное угнетение и стремление народа к свободе, лежащие в основе описываемых автором событий. Особенно подчёркивается значение свидетельств Заки Валиди, через которые подробно освещаются участники восстания, их судьбы и репрессивная политика царского правительства на основе конкретных фактов. Статья, основанная на синтезе исторической памяти, личных наблюдений и событийной реальности, передаёт уникальное эхо трагедии 1916 года и оценивает её как важный этап в борьбе народов Туркестана за независимость.

Ключевые слова: Восстание, воспоминания, империя, политические силы, национальное освобождение, независимость, крестьянин.

A CRY SEALED IN MEMORIES: THE TURKESTAN UPRISING OF 1916 IN THE EYES OF ZAKI VALIDI

Abstract: This article is devoted to analyzing the historical and political roots and consequences of the popular uprising that took place in Turkestan in 1916 based on the work of Ahmad Zaki Validi To'gan "Memories". It reveals the pages that reflect the national suffering, colonial oppression, and the people's desire for freedom that lie at the heart of the events described in the author's memoirs. In particular, through the testimonies of Zaki Validi, the participants of the uprising, their fates, and the violent policy of the tsarist government are illuminated based on concrete facts. Through the combination of historical memory, personal observation, and reality, the article reveals the unique echoes of the tragedy of 1916 and is evaluated as an important stage in the struggle for freedom of the peoples of Turkestan.

Keywords: Uprising, memories, empire, political forces, national liberation, independence, peasant.

KIRISH

1916-yilgi O'rta Osiyo qo'zg'oloni Turkiston mintaqasida yuzaga kelgan eng muhim tarixiy silkinishlardan biri sifatida, nafaqat lokal darajadagi xalq noroziligining, balki umummilliy uyg'onish, o'zligini anglash va mustamlakachilikka qarshi harakatlarning manbai bo'lgan voqealardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu voqea o'zining murakkab ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy ildizlari bilan XX asr boshidagi Markaziy Osiyo taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Aynan shunday jarayonlarga munosabat bildirgan, ularni o'zining siyosiy va ilmiy faoliyati bilan bog'lagan yirik shaxs – Zaki Validi To'g'andir[1]. To'g'anning "Xotiralari", bu borada noyob manba bo'lib, unda 1916-yilgi qo'zg'olon to'g'ridan-to'g'ri tafsilotlar bilan emas, balki voqealarning mafkuraviy talqini orqali aks ettirilgan. To'g'an, o'z yurtida siyosiy tazyiqlardan so'ng muhojirlikka ketgan bo'lsa-da, uning ilmiy va siyosiy e'tibori Turkistondagi harakatlarga, jumladan, 1916 yil voqealariga bo'lgan munosabati orqaga qaramay, barqaror qolgan.

ASOSIY QISM

To'g'an o'z asarlarida, xususan, "Xotiralar"da, O'rta Osiyodagi siyosiy kuchlar harakatini, ayniqsa basmachilik harakatini, 1916-yilgi xalq qo'zg'oloni bilan uzviy bog'liq holda ko'rsatadi[2]. U 1916-yilgi harakatni mustamlakachilik siyosatiga nisbatan tabiiy norozilik deb talqin qiladi. Uning fikricha, bu faqatgina Rossiya imperiyasining zulmiga emas, balki ijtimoiy tengsizlik, agrar muammolar va din erkinligining cheklanishiga nisbatan bo'lgan keng ko'lamli xalq reaksiyasi edi.

Zaki Validi To'g'anning ilmiy dunyoqarashi hamda siyosiy pozitsiyasi uni qo'zg'olon voqealarini bir tomonlama baholashdan yiroq qiladi. U xalq noroziligini faqat milliy yoki diniy asoslarda emas, balki ko'proq ijtimoiy-siyosiy kontekstdan kelib chiqqan holda tushuntiradi. To'g'anning "Xotiralar"ida 1916-yil voqealari "Semirechye qo'zg'oloni" deb nomlanadi, bu esa uning qo'zg'olon joylashuviga oid xolis va aniq yondashuvini bildiradi¹.

"Xotiralar"da ifodalangan asosiy jihatlar: 1. Qo'zg'olonning sabablari – To'g'an nazarida, 25-iyun farmoni (tubjoy erkaklarni orqa front ishlariga safarbar qilish haqida) Rossiya imperiyasining mahalliy xalqlar bilan munosabatidagi tanazzulni yuzaga chiqardi. Bu farmon ijtimoiy portlashga sabab bo'ldi. 2. Qo'zg'olon xarakteri – To'g'an uni diniy yoki faqat etnik kurash emas, balki keng xalq noroziligining mahsuli sifatida ko'radi. Bu bilan u rus mustamlakachiligi ostida bo'lgan boshqa musulmon xalqlar tajribasi bilan bog'liqlikni ta'kidlaydi. 3. Anvar posho va boshqa tashqi kuchlarning roli – To'g'an bu boradagi da'volarga tanqidiy yondashadi. Masalan, Enver poshoni 1916-yilgi qo'zg'olonga sababchi sifatida ko'rganlarning fikriga qarshi chiqib, bu qo'zg'olonning tub sababi mahalliy zulm va ijtimoiy bosimda ekanligini urg'ulaydi. 4. Millatlararo munosabatlar va sinfiy tafovutlar – To'g'an qo'zg'olonning ko'p qatlamli tabiatini e'tirof etadi: unda faqat turkiylar yoki boshqa etnik guruhlar emas, balki ularning ijtimoiy ahvoli, iqtisodiy manfaatlari va diniy erkinlik uchun kurashi ham muhim rol o'ynagan[4].

Zaki Validi To'g'an bu voqealarni shunchaki tarixiy fakt sifatida emas, balki o'zining siyosiy dunyoqarashiga asoslangan holda baholagan. U o'z "Xotiralar"ida qo'zg'olon bilan bog'liq fikrlarni O'rta Osiyoning mustaqillik harakatlariga ulanadigan mafkuraviy asos sifatida ko'radi. Uning uchun 1916-yil faqat o'tmishdagi norozilik emas, balki kelajakdagi siyosiy kurashlar uchun saboq va yo'l-yo'riq vazifasini o'tagan.

¹ Togan, Zeki Validi. Memoirs: National Existence and Cultural Struggles of Turkistan and Other Muslim Eastern Turks. Istanbul: 1969.

Zaki Validi To'g'an o'zining siyosiy qarashlarida milliy ozodlik harakatlarining asosiy sabablarini faqat tashqi aralashuv yoki tasodifiy siyosiy harakatlarda emas, balki tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar kompleksida ko'radi. Uning "Xotiralar"i bu borada muhim manba bo'lib, unda voqealarning tashqi ko'rinishi bilan cheklanmay, ularning chuqur ildizlari, tafakkurdagi o'zgarishlar va mafkuraviy qarama-qarshiliklar yoritilgan.

1916-yilgi qo'zg'olon to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri ishtirokchilik nuqtayi nazaridan emas, balki kuzatuvchi va keyinchalik siyosiy faol shaxs sifatida bergan baholari To'g'anning tarixiy voqelikni xolis baholashga bo'lgan intilishini ko'rsatadi. Ayniqsa, u bu qo'zg'olonning birlamchi sababi sifatida tubjoy aholiga nisbatan olib borilgan iqtisodiy va siyosiy zulmni ko'rsatadi.

Zaki Validi To'g'anning tarixiy tafakkurida 1916-yil voqealari nafaqat mustamlakachilik rejimiga qarshi norozilik sifatida, balki musulmon sharqida uyg'onayotgan milliy o'zlikni anglash harakatining tarkibiy qismi sifatida baholanadi. U milliy o'zlikni madaniy tiklanish orqali anglash, tarixiy adolatni tiklash, mustaqil siyosiy strukturani shakllantirish orqali amalga oshirish zarurligini ta'kidlaydi.

To'g'anning fikriga ko'ra, 1916-yilgi qo'zg'olon xalqda to'plangan g'azabning portlashi bo'lib, bu portlash uzoq yillar davomida to'plangan ijtimoiy tengsizlik, agrar siyosatdagi adolatsizlik, din va madaniyatga bo'lgan cheklovlar, til va urf-odatlariga nisbatan kamsitish siyosatining natijasi edi. Bu borada u xususan, chor hukumati tomonidan olib borilgan ko'chirish siyosati (pereselencheskaya politika), yerga egalik huquqlarining buzilishi, harbiy xizmatdan chiqarilgan va orqa frontga yuborilgan turkiy xalqlar vakillariga nisbatan tazyiqlarni asosiy sabablar qatorida ko'rsatadi[3].

Zeki Validi To'g'an o'zining "Xotiralar"ida 1920-yillarda boshlangan va sovet tarixshunosligida "bosmachilik" nomi bilan atalgan harakatni ham 1916-yil voqealari bilan bog'laydi. Uning fikricha, bu ikki tarixiy jarayon — bir-biridan uzilmagan, balki o'zaro mafkuraviy va siyosiy jihatdan bog'liq bosqichlar sifatida qaralishi kerak. Unga ko'ra, 1916-yilda boshlangan xalq noroziligi, mustaqillik va tenglik uchun kurash sovet tuzumiga qarshi bo'lgan keyingi harakatlar uchun zamin yaratdi. Aynan shu jihatdan, To'g'an Anvar Poshoga nisbatan ehtiyotkorona qarash bildirgan — u Anvar Poshoning 1916-yilgi qo'zg'olon uchun da'vo qilgan rahbarlik rolini inkor etgan va harakatni tashqi kuchlar emas, mahalliy xalq noroziligi shakllantirganini ta'kidlagan[2].

Zaki Validi To'g'anning faoliyati nafaqat siyosiy arbob sifatida, balki tarixchi, turkolog, sharqshunos olim sifatida ham 1916-yilgi voqealarni chuqur idrok etganini ko'rsatadi. U "Turk xalqlari tarixi", "Boshqirdiston tarixi", "Islom dunyosida uyg'onish harakatlari" kabi asarlarida bu voqealarning sabablari va oqibatlarini mustaqil ilmiy pozitsiyada yoritgan. Bu esa uning faoliyati doirasida tarixiy voqelikni siyosiy hodisaga aylanib qolmaslikka intilganini isbotlaydi. Zeki Validi o'z "Xotiralar"ida nafaqat 1916-yil voqealarini, balki keyingi yillardagi xalq harakatlarining mafkuraviy ildizlarini ko'rsatishga harakat qilgan. U milliy ozodlik harakati faqat mustamlakachilikka qarshi kurash emas, balki xalq tafakkurining yangilanishi, madaniy uyg'onish, ta'lim va ilm-fan orqali shakllanishi kerakligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u har qanday siyosiy harakatda xalqni qurbon sifatida emas, balki faol subyekt sifatida ko'rishni talab qiladi.

1916 yilgi qo'zg'olon va Zaki Validi To'g'anning siyosiy dunyoqarashi o'rtasidagi mafkuraviy bog'liqlik. Zaki Validi To'g'an XX asr boshidagi turkiy dunyo tafakkurida markaziy o'rin egallagan siymolardan biri bo'lib, uning ilmiy va siyosiy qarashlari 1916 yilgi O'rta Osiyodagi voqealar bilan bevosita aloqadorlik kasb etgan. U o'zining "Xotiralar" asarida aynan

shu qo'zg'olonni Turkiston xalqlarining milliy uyg'onish jarayonida burilish nuqtasi sifatida talqin qiladi. To'g'anning yozishicha, bu voqealar milliy haqiqatni tan olishga chorlov bo'lib, turkiy xalqlarni mustamlaka zulmidan qutulishga undagan kuchli ijtimoiy hayotiy zarurat sifatida namoyon bo'lgan[4].

1916 yilgi qo'zg'olon To'g'anning ilmiy qarashlariga muhim turtki bo'lgan. U bu voqealarni Rossiya imperiyasi tomonidan chekka hududlarda olib borilgan kamsituvchi siyosatning natijasi, deb bilgan. Ayniqsa, mahalliy xalqlarning yerga egalik huquqlarining cheklanishi, iqtisodiy bosimlar va madaniy siquvlar To'g'anning fikricha, isyon uchun asosiy sabablar bo'lgan. U ushbu harakatni keng ma'nodagi milliy ozodlik kurashining bir qismi sifatida tasvirlaydi. Zaki Validi To'g'an qo'zg'olonni faqat etnik yoki diniy asosdagi norozilik deb emas, balki u murakkab ijtimoiy qatlamlar ishtirokida yuzaga kelgan harakat sifatida qaraydi. U "Xotiralar"ida, masalan, Semireche viloyatida yuzaga kelgan ijtimoiy portlashni faqatgina qirg'izlarning yoki boshqa bir guruhning harakati sifatida emas, balki mintaqadagi umumiy norozilikning ifodasi sifatida taqdim etadi. Bu yondashuv uni boshqa tarixchilardan ajratib turadi. Uning fikricha, bu harakatda sinfiy elementlar — ya'ni, dehqonlar, ko'chmanchilar va ishchilar ishtiroki muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, podshoh farmoni bilan ish kuchi safarbarligi e'lon qilingach, eng zaif ijtimoiy qatlamlar orasida norozilik keskin kuchaygan. Bu voqealarning zamirida, To'g'an yozganidek, "xalqning muammolarga qarshi to'planib chiqishi va o'z hayotini himoya qilish istagi" yotgan edi. Shuningdek, To'g'an qo'zg'olonni etnik nizo sifatida emas, balki Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi ijtimoiy va siyosiy norozilik harakati sifatida ko'radi. U bu voqealarni "millatlararo hamjihatlik sharoitida yuzaga kelgan keng ko'lamli qarshilik" deb ataydi. To'g'anning siyosiy va ilmiy faoliyatidagi keskin burilish 1916-yilgi qo'zg'olon va undan keyingi voqealar fonida ro'y bergan[1].

XULOSA

"Xotiralar"da To'g'an o'zining Rossiya Davlat Dumasidagi faoliyatini, u yerda Turkiston masalalarini qanday ko'targanini va bu masalalarda Mustafó Cho'qay bilan qanday hamkorlik qilganini bayon qiladi. Bu ham To'g'anning siyosiy pozitsiyasini mustahkamlashda 1916-yilgi qo'zg'olon voqealari asosiy tayanch bo'lganini ko'rsatadi. Uning fikricha, bu voqealar Turkistonda federal va teng huquqli tuzum zarurligini fosh qilgan. To'g'an uchun bu qo'zg'olon Turkiy dunyo xalqlarining o'z taqdirini o'zi belgilashga bo'lgan intilishi sifatida qadrlangan. U o'z kitobida 1916 yil voqealarini "xalq noroziligining turg'un va tabiiy oqimi" sifatida talqin qilgan. Uning nazarida, bu norozilik harakati sharq xalqlari siyosiy o'zlikni anglash jarayonining ajralmas qismiga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqahorov, A. (2025). Turkistonda Ijtimoiy Adolatsizlik Va Milliy Ozodlik Harakatlarining Boshlanishi (Xix Asr Oxiri – Xx Asr Boshlari). In *Central Asian Journal Of Academic Research* (Vol. 3, Number 5, Pp. 111–113).
2. Abduqahorov Anvarjon Alijon Ugli. (2025). Resistance To Colonial Policy: The 1916 Turkestan Uprising Based On New Research. *Journal Of Applied Science And Social Science*, 15(06), 230–234. Retrieved From
3. "Central Asian Revolt Of 1916." *Wikipedia, The Free Encyclopedia*. https://en.wikipedia.org/wiki/Central_Asian_Revolt_of_1916
4. "Togan, Ahmad Zaki Validi." *Memoirs: National Existence And Cultural Struggles Of Turkistan And Other Muslim Eastern Turks*. Leiden: Brill, 1993.

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlari

08.00.00 – Economics

08.00.00 – Экономика

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNI MODERNIZATSIYA QILISH YO‘LLARI

Zuparov Bobur Botir o‘g‘li

Toshkent amaliy fanlar universiteti,

E-mail: boburzuparov4@xmail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16755735>

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli transformatsiya jarayonining tadbirkorlik va kichik biznesga ta’siri chuqur tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi biznes yuritish uslublarini tubdan o‘zgartirib, yangi imkoniyatlar va bir vaqtning o‘zida yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. Maqolada global omillar – jumladan, globallashuv, P2P iqtisodiyoti, innovatsion jarayonlar, kommunikatsion vositalarning raqamlashtirilishi va ijtimoiy-demografik o‘zgarishlarning kichik biznesga ko‘rsatayotgan ta’siri o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Raqamli transformatsiya, tadbirkorlik, kichik biznes, raqamli iqtisodiyot, innovatsiyalar, globallashuv, raqobatbardoshlik, raqamli platformalar

APPROACHES TO MODERNIZING ENTREPRENEURSHIP AND SMALL BUSINESSES IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the impact of digital transformation processes on entrepreneurship and small businesses. In recent years, the implementation of digital technologies across all sectors of the economy has fundamentally altered business practices, creating new opportunities and simultaneously presenting new challenges. The article examines the influence of global factors on small businesses, including globalization, the P2P economy, innovation processes, the digitalization of communication tools, and socio-demographic changes.

Keywords: Digital transformation, entrepreneurship, small business, digital economy, innovation, globalization, competitiveness, digital platforms.

ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И МАЛОГО БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Аннотация: В данной статье проводится глубокий анализ влияния процесса цифровой трансформации на предпринимательство и малый бизнес. Внедрение цифровых технологий во всех сферах экономики в последние годы коренным образом изменило методы ведения бизнеса, создавая новые возможности и одновременно новые вызовы. В статье исследуется влияние глобальных факторов на малый бизнес, включая глобализацию, P2P-экономику, инновационные процессы, цифровизацию средств коммуникации и социально-демографические изменения.

Ключевые слова: Цифровая трансформация, предпринимательство, малый бизнес, цифровая экономика, инновации, глобализация, конкурентоспособность, цифровые платформы

KIRISH

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida raqamli transformatsiya iqtisodiyotning barcha jabhalariga jadal kirib kelmoqda. Bu jarayon tadbirkorlik faoliyatini olib borishning an’anaviy shakllarini o‘zgartirib, yangi raqamli vositalar va texnologiyalarga asoslangan yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, kichik biznes subyektlari bu o‘zgarishlarga tez va moslashuvchan tarzda

javob bera olishlari lozim. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikni modernizatsiya qilish yo'llari tahlil qilinadi, mavjud muammolar va istiqbolli yechimlar taklif etiladi.

ASOSIY QISM

Raqamli transformatsiya raqamli texnologiyalarni mavjud biznes-modellarni takomillashtirish va ularni samarali qilish maqsadida joriy etishdir. Raqamli muhitda menejment tizimi tubdan yangilanadi: xodimlarga qo'yiladigan talablar murakkablashadi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish avtomatlashtiriladi, menejerlar axborot texnologiyalari bo'yicha yuqori salohiyatga ega bo'lishi lozim [1]. Raqamli transformatsiya amalga oshirilishi uchun kapital, infratuzilma va bilimga asoslangan resurslar kerak[2].

Raqamli transformatsiyaga ta'sir etuvchi global omillar va ularning kichik biznesga ta'siri:

Globalizatsiya va jahon bozorlarining o'zgaruvchanligi
Hamkorlikdagi iste'mol modeli va P2P iqtisodiyoti
Innovatsiyalar va o'zgarish tezligining oshishi
Kommunikatsiyaning raqamlashtirilishi
Ijtimoiy transformatsiya va demografik siljishlar
Txnologiyalar va postindustrial jamiyat ta'siri

Globalizatsiya va jahon bozorlarining o'zgaruvchanligi. So'nggi o'n yillikda kapital, texnologiya va tovarlar bozorlari tobora globallashtirib bormoqda. Natijada, kichik biznes subyektlari jahon bozorida raqobat sharoitida o'z mahsulotlari va xizmatlarini tezroq, sifatliroq hamda raqamli vositalar yordamida taklif etishga majbur bo'lmoqda. Iste'molchilar mahsulotlar haqida real vaqtda axborotga ega bo'lishmoqda va bu ishlab chiqaruvchilarni bozordagi o'zgarishlarga tezkor moslashishga undaydi. Globallashtirish kichik biznes uchun bir vaqtning o'zida ham imkoniyat (eksport, brend tanilishi), ham xavf (raqobat) manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Hamkorlikdagi iste'mol modeli va P2P iqtisodiyoti. Yaqin yillarda "Hamkorlikdagi iste'mol iqtisodiyoti" (Collaborative consumption) modeli jadal rivojlanmoqda. Bu modelda P2P (peer-to-peer) asosidagi xizmatlar, masalan, uy, avtomobil, bilim va xizmatlarni ulashish kichik biznes uchun yangi nişalarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Resurslarni egalik qilish emas, balki ulardan foydalanish samaradorligiga asoslangan bu model kichik tadbirkorlik subyektlariga minimal kapital bilan raqamli platformalar orqali bozorga chiqish imkonini beradi.

Innovatsiyalar va o'zgarish tezligining oshishi. Texnologik innovatsiyalarning o'suvchan tezligi korxona va biznes modelining moslashuvchanligini zarur qiladi. Yangi mahsulotlar bozorda tezroq paydo bo'lishi, mijozlar talabining tez o'zgarishi va texnologiyalarning jadal yangilanishi kichik biznesni doimiy transformatsiyaga undaydi. Shu sababli, kichik biznes vakillari mavjud biznes-modellarini yangilash, raqamli strategiyalarni joriy qilish va innovatsion yondashuvlarni qabul qilishga tayyor bo'lishlari kerak.

Kommunikatsiyaning raqamlashtirilishi. Raqamli texnologiyalar orqali muloqot qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Endilikda tadbirkorlar vositachilarsiz mijoz bilan bevosita muloqotga kirishishlari mumkin. Onlayn xizmatlar, elektron platformalar va mobil ilovalar kichik biznesga o'z mahsulot va xizmatlarini global miqyosda taqdim etish imkonini yaratmoqda. Shu bilan birga, davlat xizmatlari, soliq tizimi, ta'lim va boshqa sohalarda raqamli integratsiya kichik biznes faoliyatini soddalashtirmoqda.

Ijtimoiy transformatsiya va demografik siljishlar. Aholining qarishi, gender rollarining o'zgarishi, ayollarning biznesdagi faolligi va avlodlar almashuvi kabi ijtimoiy o'zgarishlar xizmat

ko'rsatish sohasining salmog'ini oshirmoqda. Bu esa kichik biznes uchun yangi ixtisoslashuv yo'nalishlarini, xususan sog'liqni saqlash, onlayn ta'lim, psixologik xizmatlar va boshqa insoniy omillarga yo'naltirilgan xizmatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, ayollar va yoshlar tadbirkorligining rag'batlantirilishi innovatsion biznes muhitini kuchaytiradi.

Texnologiyalar va postindustrial jamiyat ta'siri. Postindustrial jamiyatda ishlab chiqarishdan ko'ra xizmat ko'rsatish, bilimlar, axborot va texnologiyalar asosiy iqtisodiy resursga aylanmoqda. Bu esa kichik biznesni ham sun'iy intellekt, axborot texnologiyalari va bilimlar iqtisodiyoti asosida faoliyat yuritishga majbur qilmoqda. Masalan, texnologiyalar yordamida kichik kompaniyalar avtomatlashtirilgan xizmatlar, mobil ilovalar, e-commerce platformalar, onlayn o'quv kurslar va boshqa innovatsion xizmatlarni yaratish orqali o'z daromadlarini oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda [3].

